

PEDAGOGIK MAHORAT

5
2025



Komiljonovna	raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	104
MALLAYEV Alisher Rajabaliyevich, RAJABALIYEVA Iroda Alisherovna	Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sohasida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish	108
NAZAROVA Gulnora Norbekovna	Gender stereotiplarning qadriyatlarda namoyon bo'lishi	115
NORQULOV Usmon Elomonovich	Texnika ixtisosliklarida oliy ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy psixologik-pedagogik aspektlari	122
OMAROVA Gavxar Sadikovna	Bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy kompetentsiyalarni shakllantirishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	126
OTEPBERGENOV Jetkerbay Sakbergenovich	Kredit-modulli ta'lim doirasida talabalarning kognitiv qobiliyatlarini tashxislash	130
PRIMOV Tulkin Islamovich	Loyihalashtirish asosida modellashtirishni o'rgatish mazmuni va metodikasini takomillashtirish	135
QARSHIBOYEVA Dिल्фуza Burliyevna	O'smirlar guruhida agressiv xulq-atvorni bartaraf qilishning psixologik xususiyatlari	140
QURBONOVA Shoira Narzullayevna, SAYFIDDINOVA Muxlisa Sayfiddinovna	Texnologiya fanini o'tishda integratsiyadan foydalanish imkoniyatlari	146
FAYZULLAYEVA Gulchexra Sharipboyevna, RASHIDOVA Dildora Mansur qizi	Fanlararo o'qitish uyg'unligini ta'minlash vositasida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari	151
RAXIMOVA E'tibor Rustamovna	Jahon psixologiya fanida muloqotdagi qiyinchilik masalasi tadqiqi	155
RAXIMOVA Madina Xasanovna	Oilada bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	160
РУСТАМОВА Шахзода Маруповна	Ўспирин қизлар ва уларнинг оналари ижтимоий тасаввурларини ўрганиш натижалари	165
SADULLAYEVA Zarnigor To'lg'injonovna	Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayonining innovatsion yondashuvlari	170
SAFOYEV Hasan Aminovich	Sportchilarning stress ostida qaror qabul qilish qobiliyatlari, psixologik mexanizmlar va moslashuv strategiyalari	174
SHODMONOVA Zilola Bozorovna	Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarni ijtimoiy-reabilitatsion faoliyatga tayyorlash yo'llari	179
SHOKIROVA Manzuraxon Bobirxon qizi	Barqarorlikka erishish tamoyillari ekologik ta'limning asosi	184
SIDIQOVA Yulduz Sobirovna	Zamonaviy paradigmalar yangi innovatsion yondashuv sifatida	189
SODIQOVA Dilnavoz Qambaraliyevna	Pedagogik texnologiyalar va yangi innovatsion g'oyalar	193
SULTANOV Shoxruh Rahmon o'g'li	Ijtimoiy faollikni rivojlantirish bosqichlari va pedagogik-psixologik xususiyatlari	197
SUNNATOVA O'g'iloy Kamardin qizi	Steam yondashuvi va hozirgi kunda ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni	201
TILAVOV Muxtor Hasan o'g'li	Psixologik xizmatni samarali tashkil etishning konseptual asoslari	206
TURDIYEVA Nigora Saidovna	Etnopedagogik kompetensiya bo'lajak o'qituvchilarning etnik madaniy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida	210
VAPOYEVA Ra'no Raximberganovna	Autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi	214

TEKNOLOGIYA FANINI O‘TISHDA INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Qurbonova Shoira Narzullayevna,

Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna,

Buxoro davlat universiteti talabasi

Maqolada o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda texnologiya fani darslarini o‘zaro va boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘tish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Texnologiya fani darslarini o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda boshqa fanlar bilan bog‘lash, ularning bilim va ko‘nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Interdisciplinar yondashuv, loyihalash faoliyati, STEM ta‘limi, axborot texnologiyalaridan foydalanish, kreativ yondashuv va muammoni hal qilish ko‘nikmalari orqali o‘quvchilar real hayotdagi muammolarni yechish, ijodkorlik va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu yondashuvlar nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy tajribalarni oshirishga ham yordam beradi, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishini va motivatsiyasini oshiradi. Natijada, texnologiya fani darslari nafaqat o‘qitish jarayonini boyitadi, balki o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, integratsiya, integratsion darslarning strukturasi, mehnat darslari.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРАЦИИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНОЛОГИИ

В статье рассматриваются возможности интеграции уроков технологии с другими предметами для формирования компетенций учащихся. Связывание уроков технологии с другими дисциплинами позволяет комплексно развивать их знания и навыки. Интердисциплинарный подход, проектная деятельность, STEM-образование, использование информационных технологий, креативный подход и навыки решения проблем помогают учащимся решать реальные жизненные задачи, развивать креативность и инновационное мышление. Эти подходы не только обеспечивают теоретические знания, но и способствуют повышению практического опыта, а также увеличивают интерес и мотивацию учащихся. В результате уроки технологии не только обогащают процесс обучения, но и создают прочную основу для будущих успехов учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, интеграция, структура интеграционного урока, уроки труда.

OPPORTUNITIES FOR USING INTEGRATION IN TEACHING TECHNOLOGY

The article discusses the possibilities of integrating technology lessons with other subjects to develop students' competencies. Linking technology lessons with other disciplines allows for a comprehensive development of their knowledge and skills. An interdisciplinary approach, project-based activities, STEM education, the use of information technologies, a creative approach, and problem-solving skills help students tackle real-life challenges, fostering creativity and innovative thinking. These approaches not only provide theoretical knowledge but also enhance practical experience and increase student interest and motivation. As a result, technology lessons not only enrich the learning process but also create a solid foundation for students' future success.

Keywords: primary education, integration, structure integration lesson, jobs training lessons.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvoffiq, ta‘lim-tarbiyaviy jarayonida jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga ijodiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib, an‘anaviy o‘qitish o‘rmini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtayi nazardan qayd etish lozimki, XX asrning yakuni texnokratik taraqqiyotga nuqta qo‘yib, gumanitar madaniyatning ibtidosiga yo‘l ochdi. Demak, ta‘lim-tarbiyada ham amalga oshiriluvchi islohotlar mana shu mantiqqa mos tarzda, jamiyatga xizmat ko‘rsatishi lozim. Bu o‘rinda noan‘anaviy o‘qitish shakli - integratsiyaning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Texnologiya ta‘limi darslari, o‘quvchilarning amaliyotdagi ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni zamonaviy hayotda foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni berishda muhim ahamiyatga ega. Bunday

jarayonda matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya, geografiya va jismoniy tarbiya kabi fanlar bilan integratsiya qilish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

R. A. Mavlonovada bu tasnif quyidagicha ifoda etiladi:

- chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar;
- asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar;
- umumiy ilmiy tushunchalar, konuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar;
- fan evolyutsiyasi bilan bog'lik muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish uslublari, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar;

Binobarin, boshlang'ich ta'limdagi integratsiya o'z atrofida: rasm, informatika, chizmachilik, o'qish, matematika, tabiatshunoslik, singari o'quv fanlarni hamda ingliz tilini jamlaydi. Texnologiya darslarida rasmlarning tutgan o'rni benihoya kattadir, chunki birorta detall yoki buyumni yasashdan avval uning rasmi yoki eskizi chiziladi va o'quvchilarga ko'rsatiladi. O'quvchilar ham ana shu rasmlarni daftariga ko'chirib chizib oladilar. Ko'rinish turibdiki, bu yerda o'quvchilarda har xil rasmlar chizish malakasi ham shakllana boradi. Lekin tajribalardan ma'lumki, rasm chizish oson ish emas. Ko'pgina o'quvchilar rasm chizishga oid yetarli ma'lumot va malakaga ega bo'lmaganliklaridan bu ishni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli o'qituvchi texnologiya darslarida o'quvchilarga buyumlarning texnik rasmi, eskizi, yaqqol tasviri, perspektiva, rasmlarni chizishdagi ish ketmaketligi shuningdek, ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar haqida ham tushuncha berib borishga to'g'ri keladi.

Texnologiya va matematika. Texnologiya ta'limi darslarida geometrik tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar, to'g'ri burchakli uchburchak va to'g'ri to'rtburchaklarni hosil qilish uchun matematika fanidan olingan bilimlar kerak. Shakllarni simmetrik joylashtirish, aylana, burchaklar va boshqa geometrik elementlarni aniqlash uchun o'zgaruvchi asboblardan foydalanish talab etiladi. Texnologiya darslarida chizmachilik ham o'z o'rnida juda zarurdir. Chunki har qanday detallni yasash uning chizmasini o'qishdan boshlanadi va bu jarayonda o'quvchida bo'lajak buyum uning qismlari to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Binobarin, Texnologiya darslaridagi muhim ko'rgazmalardan biri bo'lgan texnologik va instruksion kartalarni chizish va ulardan foydalanish ham chizmalardan qanday foydalanishga bog'liqdir. Demak, o'quvchilarning amaliy faoliyati va tayyorlanadigan buyumlarning sifati ko'p jihatdan ularning chizmachilikka oid bilim va ko'nikmalarga ham bog'liq ekan. Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarga to'g'ri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar, to'g'ri burchakli uchburchak va to'g'ri to'rtburchak kabi shakllarni hosil qilishga oid tushunchalar zarur bo'ladi. Bulardan tashqari, o'quvchilar texnologiya fani darslarida simmetriya o'qi, shakllarni simmetrik joylashtirish, aylana, uni bo'laklarga bo'lish, urinmalar o'tkazish chizg'ich, go'nya, transportir, burchak o'lchagich, sirkul' kabi turli asboblardan yordamida detall yoki buyumlarning burchaklarini, yoy markazlarini, to'g'ri va egri chiziqli boshqa o'lchamlarini aniqlashlariga to'g'ri keladi. Bunday paytlarda geometriyaga oid bo'lgan bilimlar zarur bo'ladi. Binobarin, maktab geometriya kursida chizish va o'lchash qurollaridan foydalanish, yuzalarni almashtirish kabi ishlarni bajarishda katta imkoniyatlar bor.

Texnologiya va fizika. Fizika fanining texnologiya ta'limidagi o'rni ham muhimdir. Turli materiallarning fizikaviy xususiyatlari, masalan, metallning yaltirashi, ularning ranglari va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumot berish zarur. Bu bilimlar o'quvchilarga materiallarni to'g'ri tanlash va ishlov berishda yordam beradi. Texnologiya ta'limi buyicha amaliy mashg'ulotlarda turli materiallarga ishlov berishdan oldin ularning fizikaviy xususiyatlarini bilish zarur. Masalan, har qanday metall o'ziga xos yaltiroqlikka ega bo'lib, bu uning rangi deyiladi. Hamma metallning rangi bir xil emas. Umuman olganda materiallarning fizikaviy xususiyatiga ko'ra farqlay olish, muqobillarini tanlash orqali detall va buyum qismlarini tayyorlashga erishiladi.

Texnologiya va informatika. Informatika fanining texnologiya ta'limidagi roli ham ahamiyatlidir. Elektron hisoblash mashinalari va avtomatlashtirilgan stanoklar haqida bilimlar, texnologiya jarayonida samaradorlikni oshirish uchun muhimdir. O'quvchilarga tokarlik, frezalash, randalash kabi usullarni o'rgatishda avtomatlashtirilgan tizimlarning ishlash prinsiplari haqida ma'lumot berish kerak. Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarning elektron hisoblash mashinasi va informatika asoslari fani buyicha olgan bilim, ko'nikmalarini hisobga olgan holda ularni ishlab chiqarish jarayoniga qanday tadbiq etishga oid tushunchalarni berib borish zarur. Masalan, o'quvchilarga materiallarga mexanik ishlov berish buyicha tokarlik, frezalash, randalash, prokatlash, parmalash stanoklari bilan tanishtirayotganda o'quvchilarga hozirgi kundagi takomillashgan avtomat va yarim avtomat dasturlashtirilgan stanoklarning ishlash prinsiplari, nimaga asoslanib ishlashini aytib o'tish joizdir. O'quvchilarga yuqorida aytilgan stanoklarda bajariladigan operatsiyalarni bir stanokda, ya'ni dasturlashtirilgan sistemadagi stanokda bir necha ishlar; yo'nish, teshish, rezba ochish, pardozlash va boshqa operatsiyalarni bajarishdagi qo'layliklar haqida gapirib o'tilsa yanada yaxshiroq bo'ladi.

Texnologiya va kimyo. Kimyo fanining texnologiya ta’limidagi ahamiyati materialshunoslik bilan bog’liq. Plastmassalar, polimerlar va boshqa moddalar kimyoviy tarkibi va xususiyatlari haqida ma’lumot berish, ularning ishlatilishida foydali bo’ladi. Shuningdek, elim, buyoq va pardoz materiallarining xavfsizlik qoidalari ham muhimdir. O’quvchilarga materialshunoslikka oid bilimlar berish ularning bu sohadagi tushunchalarini kengaytirishda kimyoviy usulda olinadigan materiallar, jumladan, plastmassalar, polimerlar, polietilen plyonkalar, sun’iy oyna, sun’iy kauchuk va boshqa shu kabilar haqida ham ma’lumot berishga to’g’ri keladi. Bunda shu xildagi materiallarning olinishi va ishlatilishini moddalarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari orqali tushuntirish yaxshi natija beradi. Bulardan tashqari yelim, buyoq, lok, atseton kabi biriktiruvchi, pardoz va erituvchi materiallarning hosil kilinishi, ishlatilishi hamda ulardan foydalanishdagi havfsizlik qoidalari haqida ham alohida to’xtalib utish zarur.

Texnologiya va biologiya. Biologiya fanidan olingan bilimlar texnologik jarayonlarda daraxtlarning turlari, tuzilishi va ularning xususiyatlari haqida ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Amaliy mashg’ulotlarda jismoniy holatlarga oid tushunchalar ham kerak bo’ladi. Biologiyaga oid tushuncha va ma’lumotlar, ayniqsa, texnik texnologiya fani darslarida esa daraxt(yog’och)larning turlari va tuzilishini, ularning yoshini, nuqsonlarini va namligini aniqlashda ham biologiyaga oid ma’lumotlar kerak bo’ladi. Shuningdek, amaliy mashg’ulotlarda terlash, charchash, jismoniy zo’riqish kasb fiziologik holatlar hamda ularning zararli oqibatlarini, tozalik va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishni tushuntirishda ham biologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi tibbiyot kabi fanlardagi bilimlarga asoslanib ish olib boriladi.

Texnologiya va geografiya. Geografiya fanining texnologik ta’limdagi o’rni materialshunoslik bilan bog’liq tushunchalarni o’rganishda namoyon bo’ladi. Yog’och ishlashda materialbop daraxtlar haqida ma’lumotlar, metallarni ishlashda metall olinadigan konlar haqida ma’lumotlar kerak. Texnologiya ta’limi darslarida o’quvchilarga materialshunoslikka oid ayrim tushuncha va ma’lumotlar ham beriladi. Jumladan, materialbop daraxtlar va ular o’sadigan joylar haqidagi ma’lumotlardan yog’och ishlash darslarida; metallar, metall qotishmalari va ularning turi, metall olinadigan konlar, ularni izlash va topish, rudadan metallarni ajratib olish, turli prokatlar hosil qilish hamda ulardan foydalanish haqidagi ma’lumotlardan metallarni ishlashga oid mashg’ulotlarda foydalanish mumkin. Geografiya fani tabiat qonuniyatlari va jamiyat taraqqiyotidagi muammolarni tadqiq etish hamda istiqbolni belgilash masalalarini hal etishda ham katta o’rin tutadi. Texnologiya va jismoniy tarbiya.

Natijalar. Ma’lumki, Texnologiya ta’limi darslarining asosiy qismi amaliy mashg’ulotlardan iborat. Shu sababli o’quvchilarning amaliy mashg’ulotlarda horib qolmasliklari ko’p jihatdan ularning jismoniy chiniqishlariga bog’liqdir. Bundan texnologiya va jismoniy tarbiya mashg’ulotlarini o’zaro muvofiklashtirish zarur degan oqilona xulosa kelib chiqadi. Binobarin, yoshlarni jismoniy tarbiyalash bilan ularni mehnatga tayyorlashning o’zaro kompleks bog’langan masalasi hal etiladi, ya’ni unda shaxsning mehnat faoliyati uchun zarur bo’lgan professional jismoniy xususiyatlari, harakat malakalari, axloqiy-irodaviy va sotsial sifatlari shakllanadi. Xususan arralash, randalash ishlarini gimnastika, bolg’alash ishlarini, chamalash ishlarini mo’ljalga olish kabi mashg’ulotlarga muvofiqlashtirish mumkin. Shuni alohida ta’kidlab o’tish o’rinliki, agar jismoniy tarbiya mashqlari V-VII sinflardagi texnologiya darslariga umumiy tarzda bog’lansa, keyinchalik esa yuqori sinflarda bu bog’lanishlarni o’rganiladigan muayyan ixtisosliklar, masalan, duradgor, tokar, elektr payvandchi, suvoqchi, g’isht teruvchi, slesar-santexnik kabi kasblarga bevosita moslashtirish qiyin emas.

Texnologiya va adabiyot. Ma’lumki, texnologiya ta’limi darslarida adabiyot fanining bog’lanishi sezilarli darajada namoyon bo’ladi. Chunki adabiy asarlarda mehnat tarbiyasi va mehnatsevarlik g’oyalari ufurib turadi. Texnologiya ta’limi darslarida bulardan omilkorlik bilan foydalanish, zarur parchalarni o’qib berish kerak. Shuningdek, mashhur shoirlar o’tmishda ustalar tomonidan yasalgan ajoyib moslamalardan foydalanganliklarini ham eslatib o’tish mumkin. Masalan, o’quvchilarga kitob qo’yib o’qish uchun mo’ljallangan lavh haqida ma’lumot berish bilan bevosita Nizomiy, Al-Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi allomalarimizning ijodiy faoliyatlariga to’xtalib, ular mana shu moslamadan, ya’ni lavhdan foydalanib kitob mutoala qilganliklarini aytib o’tish o’rinlidir. Shoir Hislat esa mashhur shoir bo’lish bilan birga mohir duradgor usta bo’lganligini eslatib o’tish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bulardan tashqari nazariy va amaliy darslarda o’lchov olish ishlarini xalq og’zaki ijodi bilan bog’lash ham mumkin. Bu o’rinda quyidagi xalq maqollarini keltirish o’rinlidir: “Yetti o’lchab bir kes”, “Rejali ish buzilmas”, “Rejasiz ish - qolipsiz g’isht”, “Sanamay sakkiz dema”, “Keng kengashib yirtilar, tor tortishib” va boshqalar. Texnologiya ta’limi muallimlari o’z darslarida mehnat, mehnatkash insonlar to’g’risidagi badiiy asarlarni o’quvchilarga tavsiya qilishlarib, natijalarni tekshirib borishlari orqali ulardan mehnatga muxabbat, hurmat tuyg’ularini o’stirish, mehnatga ongli munosabatda bo’lish, ijodkorlikka intilish kabi xislatlar tarkib topishiga yordam berishlari dardkor.

Texnologiya va ona tili. Hayotda nutq va tilning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Hammamizga ma'lumki, sobiq Sovet Ittifoqi davrida o'zbek tiliga, atamalarga, tilning lug'at boyligiga e'tibor susaydi. 1989-yil 21-oktyabrda O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili to'g'risida” Qonunning qabul qilinishi texnologiya ta'limini o'qitish ishlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mavzularni bayon qilishda ona tiliga mos holda ayrim atamalarning o'zbekcha shaklini ko'rsatish lozim. Jumladan, verstakni – dastgoh, remontni – ta'mir, slesarni – chilangar, lineykani – jazbar, xolodilnikni – sovutgich kabi o'nlab atamalarni misol qilib keltirish mumkin. Shular qatorida ayrim so'z va atamalar ham borki, ularni o'zbekchalashtirish mumkin emas, chunki ular ifodalangan narsa va bular ilgari bizda ishlatilmagan, shuning uchun o'sha so'zlarni o'zgarishsiz qo'llash lozim bo'ladi. Bunday so'zlarga tiski, otvyorka, rezba, rezina, montaj, plastmassa, voltmetr, ampermetr, radiolampa, diod, zubilo, shtagentsirkul, transportir, stanok kabi atamalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, ona tili darslarida ayrim mavzularni o'rgatish jarayonida kasb-hunarga oid misollarni qo'llash orqali ham fanlarni bir-biriga bog'lash mumkin. Jumladan, “Kasb-hunar so'zlari” mavzusi o'rganilayotganda duradgorlik, tikuvchilik, to'quvchilik, pazandachilik va boshqa kasblarga doir atama va so'zlardan keng foydalanish, ularni o'quvchilarning o'zlariga toptirish, uyda 167 yozib kelish uchun vazifa qilib berish mumkin. Bunday ishlar orqali o'quvchilar har xil kasb-hunarlar bilan tanishadilar, ularda shu kasb-hunarga ma'lum darajada qiziqish va ishtiyoq uyg'onadi.

Texnologiya va ekologiya. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida ish asboblari va xom ashyolardan tejamkorlik bilan foydalanish kun tartibidagi asosiy talablardan bo'lib koldi. Amaliy mashg'ulotlarda xom ashyolardan va asbob uskunalaridan tejamsiz, pala-partish foydalanish pirovard oqibatda ekologiya muammosiga kelib takaladi. Shuning uchun o'quvchilarga yog'och, metall, plastmassa kabi materiallarni berayotganda nima uchun shu xom ashyolarni tejamkorlik bilan ishlatish zarurligini aytib o'tish lozim. Ularga bu narsalarning uzoq davrlar mobaynida va qanday yullar bilan vujudga kelishini hamda tabiatga qanchalik ta'sir ko'rsatishini yoki bog'liqligini gapirib o'tish mumkin.

Xulosa. Texnologiya ta'limi darslarida boshqa fanlar bilan integratsiya qilish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga yordam beradi. Bu jarayon ularni zamonaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Integratsion yondashuv orqali fanlarning o'zaro aloqadorligi aniqlanadi va bu o'quvchilarning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi. Yuqorida aytilgan fikrlar, integratsiya -texnologiya fanidagi fanlararo uzviy bog'lanishlar ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Narzullaevna, K. S. (2021). The Role of Educational Process in the Formation of a Harmoniously Developed Generation and Methods of using Modern Teaching Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 4(1), 25-28.
2. Kurbanova Shoir, N. (2022). Innovative Activity of Teacher in Primary Class. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 13-15.
3. Kurbonova, S. N., Nabiyeva Maftunabonu, N. G., & Yuldashova Kumush, I. G. (2022). Using the Heritage of Thinkers to Interest Students in the Profession. *International journal of trend in scientific research and development*, 10-12.
4. Narzullayevna, Q. S. (2024, February). Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida tabiat bilan tanishtirishda ekskursiyaning o'rni va uni o'tkazish metodikasi. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 1, pp. 48-51).
5. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология – целостная система образовательного процесса. *новые педагогические исследования: сборник статей IV*, 20.
6. Kurbanova Shoir, N. (2022). Innovative Activity of Teacher in Primary Class. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 13-15.
7. Kurbonova, S. N., & Abdullayeva, F. (2021). Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish. *Scientific progress*, 2(6), 1030-1035.
8. Narzullayevna, Q.S. (2024, February). Tabiatshunoslik darslarida oquvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 1, pp. 44-47).
9. Narzullayevna, Q. S. (2024, February). Tabiiy fanlarni boshlang'ich sinflarda oqitish jarayonida biologic va geografik tasavvurlarni shakllantirish. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 1, pp. 39-43).

10. Narzullayevna, Q. S. (2024, February). Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida tabiat bilan tanishtirishda ekskursiyaning o'rni va uni o'tkazish metodikasi. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 1, pp. 48-51).
11. Kurbanova, S. (2020). Technology for the development of logical thinking in students in primary school. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 1(1).
12. Boshlang'ich sinfda o'qituvchining inovatsion faoliyati. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. 353-357. 2022/4/25
13. Narzullayevna K.S. Methods of Organizing Classes for Working with Paper and Cardboard in Technology Classes. Kurbanova Shoiri Narzullayevna. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157)147-151